

## INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA BADIY ASARLAR TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI

*Amrulloeva Marjonabonu Hasan qizi*

*Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi*

*E-mail: [amrullayevamarjona@gmail.com](mailto:amrullayevamarjona@gmail.com)*

*+998938722278*

***Annotatsiya.** Badiiy adabiyotning keng miqyosda rivojlanishi, yangi adabiyot durdonalarining yaratilishi bevosita tarjimashunoslik va tarjimon mahorati bilan ham chambarchas bog'liq. Zero, tarjimon bir tildan ikkinchi tilga bir asarni tarjima qilar ekan, u, nafaqat, boshqa ijodkorning ijod mahsulini ma'nosini o'zgartirmagan holda tarjima qiladi, balki, ikkinchi bir tilda yangi asar yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqolada badiiy asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda, mahoratli tarjimon bunday muammolarga qanday yechim topishi, shuningdek, o'z ishining ustasi badiiylikni qanday oshirishi to'g'risida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** tarjimon uslubi, yordamchi tildan foydalanish, ma'noviy barqarorlik, sinonimlarda muqobil tanlov, to'g'ridan-to'g'ri tarjima, ismlar va joy nomlarining qo'llanilishi, yakuniy tahrir.*

### **Kirish**

Tarjima asarlarning dunyoga kelishi tarjimondan kuchli lingvistik bilim, keng dunyoqarash, yuksak estetika va kuchli sabr-u bardoshni talab etadi. Birinchidan, asar yozilgan tilning grammatik qonun-qoidalarini, so'zlarning lug'aviy ma'nolarini mukammal bilmaslik tarjima jarayonida noqulayliklar paydo bo'lishiga yoinki tarjimada g'alizlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Boshqa tilda mavjud elementlarning ona tilda uchramasligi ijodkorni chalkashtiruvchi vositaga aylanmasligi lozim. Masalan, artikllar ingliz tili grammatikasining asosiy qismini

tashkil etadi va ma'no farqlashda katta o'rin tutadi. Vaholanki, o'zbek tilida bu grammatik tushunchalar mavjud emas. Bunda tarjimonga qo'shimcha yordamchi til yordamga keladi. Tarjimon muqobil til sifatida rus tilini tanlashi mumkin. Chunki bu tillar bir til oilasiga mansub va o'xshash tillardir. Lekin tilga oid bilim yagona hal qiluvchi omil bo'lib qolmaydi. Chunki tarjima jarayonida ba'zan madaniyatlar o'rtasidagi farqlar sababli, ba'zan asar yozilgan davr nuqtayi nazaridan grammatik va leksik muammolar bo'lmasa-da, ma'noni anglashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Keng dunyoqarashning bo'lishi, har sohadan xabardorlik tarjimon ishini osonlashtiradi. Tarjimon ko'p kitoblar o'qigan bo'lishi, uslublardan foydalanish me'yorlarini to'liq tushunishi lozim. O'z-o'zidan a'yonki, badiiy asarlar hamma uslubni yoritishi mumkin. Turli uslubdagi materiallarni o'qish, anglash tarjima jarayonida badiiylikni oshirishga yordam beradi. Chunki ta'kidlanganidek, badiiy tarjima barcha uslublarni o'z ichiga olishi, keng qamrovli bo'lishi mumkin. Bu esa tarjimonning estetik mahoratini ko'rsatib beradi. Tarjima bu boshqa tilda yangi asar yozish bilan teng bo'lganligi uchun ijodkordan mustahkam iroda, sabr talab etiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

O. Ismanovning “Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon mahorati” maqolasida shunday deyiladi: “Hozirda butun dunyo olimlari orasida tarjimachilik bo'yicha ikki xil qarash mavjud. Birinchi guruh olimlari tarjima mavjud emas degan fikrni ilgari suradi va buni isbotlash uchun quyidagicha misol keltiradilar: Til bu har bir insonning o'z ichki dunyosini ko'rsatadi. Til insonning o'z mulki demakdir, u orqali hamma o'z fikrlarini bayon etadi. Ya'ni bir asarni besh kishi tarjima qilsa, beshta yangi asar paydo bo'ladi. Qolgan guruh esa, tarjima mavjud va tarjimon ma'no va syujet doirasidan chetga chiqmasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, Sadiqova Gulmira Mamirbekovnaning “Bevosita ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalar qilishning asosiy tamoyillari” maqolasida ham shu xususda so'z boradi: “Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun tanlangan

xorijiy tildagi til birliklarini mukammal o'rganish tahlil jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shimcha ravishda, madaniyatlararo tafovutni anglash uchun asl matn tilidagi xalq mentalitetini ham tushunish va o'rganish talab etiladi. Badiiy tarjima normalarini qo'llagan holda leksik, grammatik, stilistik uslublarini o'z o'rnida ishlata olish tarjima sifatini yaxshilaydi. Muallif ijodiy fikrlarining ta'sirchanligini oshirish uchun tildagi nozikliklarni o'z o'rnida namoyish qila oladigan vosita hisoblanadi. Chunki mohiyatan badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi muallif maqsadini tarjima qiladigan tilda to'laligicha yetkazib berishdir.

### **Metodlar**

Maqolani yozish jarayonida, asosan, tajriba metodidan foydalanildi. Ingliz adabiyotining bebaho durdonasi bólmish Jane Oustinning "Persuasion" asari ingliz tilidan ózbek tiliga tarjima qilindi. Tarjima jarayoni esa tarjimondan talab qilinadigan asosiy vazifalarni ko'rsatib berdi. Bundan tashqari, ushbu mavzuda yozilgan turli maqolalar o'rganildi.

### **Natija**

Tarjima jarayoni murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimon, nafaqat, ma'noni chiqarib bera olishi, balki badiiylikni ham o'z o'rnida qo'llashi lozim. Tarjima asarlar ko'plab yaratilayotganiga, bunga talab oshib borayotganiga qaramay, barcha tarjima asarlar talab doirasiga javob bera oladi deb bo'lmaydi. Bu esa tarjimonlar maktabining hali yuqori rivojlanish bosqichiga chiqmaganini, tarjimonlar o'z ustida ishlashi lozimligini ko'rsatadi. Ayniqsa, o'zbekcha asarlarni boshqa tillarga tarjima qilish juda sust rivojlangan bo'lib, bu borada ko'p ishlar qilish kerakligidan dalolat beradi.

### **Muhokama**

Tarjimon mahorati haqida so'z borar ekan, ushbu doirada amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar haqida va oldinda turgan dolzarb muammolar to'g'risida so'z borishini taqozo etadi. Masalan, Omon Mo'minov O'zbekistonda tarjimashunoslikni yangi bosqichga olib chiqqan zabardast olimlardan bo'lib, uning "English for translators", "Translation history", "Practical translation", "A Guide to Consequative Translation", "Yozma tarjima", "Tarjima nazariyasi" kabi darslik va

o'quv qo'llanmalari hozirgi kunda ham tarjimon tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida asosiy o'quv adabiyotlaridan hisoblanadi. Bu qo'llanmalarda xorijiy til materialining ona tiliga ta'sirchanlik va ma'noviylikni yo'qotmasdan tarjima qilish va muallifning maqsadini to'laligicha ochib berish uchun lozim parametrlar ochib berilgan. Xususan, joy nomlari va ismlarning tarjimada qanday o'zgarishiga oid ko'rsatmalar berib o'tilgan. Tarjima yakunlangach, ish sifatini oshirish uchun yakuniy tahrir ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Abdukarimova Dildora Raxmatullayevna va Abdusattorova Gulira'no Shavkat qiz ham shu mavzuda izlanishlar olib borib, quyidagi maqolada o'z topilmalarini bayon etdilar. "Tarjima metodlari chet tili darslarining ajralmas qismi sifatida" maqolasida shunday keladi: "Tarjima nutqiy fikrlash faoliyatining maxsus bilim, mahorat talab qiladigan va sezilarli darajada intuitiv ravishda hosil bo'ladigan juda murakkab turi hisoblanadi. Bunday bilim va mahorat ko'nikamalarini egallash o'qish yoki uzoq vaqt amaliyot o'tash orqali o'g'irish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ko'ngildagidek hal etish imkonini beruvchi intuitiv qobiliyatni rivojlantiradi. Tarjimonlik faoliyatida yuqori natijalarga aynan shu sohada tug'ma iqtidori bo'lgan insonlarning erishish ehtimoli yuqori. Tarjimonning professional tayyorgarligi quyidagi xususiyatlarni talab etadi:

- yuksak madaniyat
- keng ensiklopedik bilim
- dilkashlik va bilimni muntazam to'ldirib borish
- keng qamrovli qiziqishlar".

Tarjimon mahoratini oshirishdagi muammolarning yechimlariga keladigan bo'lsak, yosh avlodni ilk ta'lim olish bosqichlaridayoq kitobga mehr qo'ydirish, ta'lim dargohlarida tarjima amaliyoti yo'nalishlarini tashkil etish, oliy ta'limda tarjimonlarga keng imkoniyatlar yaratish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

### **Xulosa**

Badiiylikni oshirishda tarjimon mahoratining qay darajada muhim ekanligi yaqqol ayon. Bu esa tarjimonning qay jihatlarni ko'zdan kechirishi, asar

kitobxonning yuragiga kirib borishi uchun nimalarga e'tibor qaratishi lozimligini ko'rsatadi. Bu borada o'zbek tiliga asarlar tarjima qilishda yutuqlar talaygina bo'lsa-da, o'zbekcha asarlarni boshqa tillarga tarjima qilishda sustkashlikni ko'rish mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Ismanova, O. (2023). NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11), 93–97. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/22826>
2. Sadiqova, G. (2022). Bevosita ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalar qilishning asosiy tamoyillari.
3. Abdukarimova, D; Abdusattorova G. (2023). Tarjima metodlari chet tili darslarining ajralmas qismi sifatida
4. Quronov, D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akadernashr, 2013.